

## **RENTGENOLOGIK TADQIQOT USULLARI**

**Elmurotova Dilnoza Baxtiyorovna**

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa fanlar doktori PhD

**Abdukaxxarova Mohinur Ilhom qizi**

2 bosqich magistr

**Raximbekov Anvarbek Xojakbar o'g'li,**

3 bosqich talabasi

I.A. Karimov nomli Toshkent Davlat Texnika Universiteti

**Turdiyeva Sitora Zafar qizi**

**Annotasiya:** Maqolada rentgenologik tadqiqot usullari haqida bat afsil ma'lumot berilgan bo'lib, ularning kamchiliklari va afzallikkali yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** rentgenologiya, rentgenoskopiya, fluorescent ekran, rentgenli pylonka, fluorografiya.

## **METHODS OF RAINGENOLOGICAL RESEARCH**

**Elmurotova Dilnoza Bakhtiyorovna**

Doctor of Philosophy in Physics and Mathematics PhD

**Abdukakharova Mohinur Ilhom qizi**

2nd stage master

**Rakhimbekov Anvarbek Khojiakbar oglu,**

3rd year student

**Turdiyeva Sitora Zafar qizi**

I.A. Tashkent State Technical University named after Karimov

**Annotation:** The article provides detailed information on radiological research methods, their disadvantages and advantages.




**Keywords:** radiology, radioscopy, fluorescent screen, X-ray film, fluorography.

Rentgenologik tadqiqot usullariga rentgenoskopiya, rentgenografiya va florografiya kiradi.

Rentgenoskopiya (grekcha scopeo - ko'rmoq, kuzatmoq degani) – rentgenologik usul bo'lib, obektr tasviri fluorescent ekranda olinadi. Ushbu tadqiqotda rentgen naychasi tomonidan generasiyalanadigan rentgen nurlari nishoni bemorning tanasidan o'tib, fluorescent ekranga tushadi va unda ijobiy soya tasvirini hosil qiladi (1-rasm). Ushbu tadqiqot - yuritilish deb ham ataladi, u asosan ko'krak va qorin bo'shlig'ini tekshirish uchun ishlatalidi.

Usulning afzallikkali oddiylik va iqtisodiy samaradorligidadir, chunki ko'p o'qli va polipozitsion tadqiqotlar imkoniyatini beradi, ya'nini, bemorni turli proektsiyalarda va pozitsiyalarda tadqiqotini o'tkazish, real vaqt rejimida o'rganilayotgan organlarning anatomik, morfologik va funktsional xususiyatlarini baholash qobiliyatini beradi.

Rentgenoskopiyaning asosiy kamchiliklari yuqqori radiatsiya ta'siri va ruxsat etuvchanlik husisiyatining kichikligidir (kichik strukturalar deferensasiyasida va kichik o'zgarishlarda qiyinchiliklar olib keladi). Fluorescent ekrani yuritilishi ancha zaif, shuning uchun ham avvallari rentgenoskopiya qorong'i honada amalga oshirilgan, ammo olingan tasvirning sifati ancha past bo'lgan.

		
1-rasm. Rentgenoskopiyasi sxemasi, 1 - rentgen naychasi, 2 - rentgen nurlarining sochiluvchi nishoni, 3 - bemor, 4 - bemordan o'tgan rentgen nurlari, 5 - fluorescent ekranda	2-Rasm. Ikkita kuchaytiruvchi ekran orasida joylashtirilaqdigan kasseta (1) va rentgenli pylonka (2).	3-rasm. Fluorografiyaning sxemasi, bunda 1 - rentgen naychasi, 2 - rentgen nurlarining manbasi, 3 - bemor, 4 - flyorecent ekran, 5 - ekrandan suratga olish qurilmasi.

Hozirgi vaqtida rentgenoskopiyaning takomillashtirilgan usuli sifatida rentgeno-televidenie usuli q'llaniladi – unda elektron-optik qayta ishlovchi (EOQ) va television tizimi yordamida yoritiladi. EOQ da fluorescent ekrandagi ko'rinvchan tasvir kuchaytiriladi va television monitorda tasvirlangan elektr signalliga aylantiriladi. Ushbu rentgen tasvirini oddiy, yoritilgan xonada bemalol ko'rish mumkin. EOQ dan foydalanilganda nurlanishning quvvati bemor va xodimlarga uchun ancha kam bo'ladi. Telesistema ayniqsa organlar harakatini o'rganish uchun muhim bo'lib, olib borilayotgan tadqiqotlarni yozib olish imkonini beradi. Kichik detallarning yaxshiroq baholanishi uchun, tadqiqot natijalarini ob'ektivlashtirish va bemorni dinamik kuzatilishida rentgenoskopia ko'pincha bir qator qo'shimcha tasvirlar bilan to'ldiriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ohirgi vaqlarda fluorescent ekranni raqamlı detektorlar (matriksa) tizimiga almashtirilishining yangi texnologiyalari paydo bo'lmoqda.

**Radiografiya** (yun. greapho — yozmoq, tasvirlamoq degan ma'noni bildiradi) rentgenologik tekshirish usuli bo'lib, bunda o'rganilayotgan ob'yektning tasviri pylonkada (to'g'ri yoki analogli rentgenografiya) yoki mahsus raqamlı qurilmalarda (raqamlı rentgenografiya) olinadi. Statik tasvir – rentgenoskopiyanan farqli o'laroq, bu erda dinamik tasvir real vaqtida olinadi.

Rentgen pylonkasi - qo'zg'atilmagan (yoritilmagan) kumush galogenid kristallarining kichik zarrachalaridan iborat bo'lgan jelatinli ingichka qatlamlı emulsiya bilan qoplangan nitroatsetat asosdan iborat bo'lib u yorug'lik o'tkazmaydigan maxsus qutida saqlanadi va to'liq qorong'u honada ochiladi, chunki emulsiya nafaqat rentgen nurlariga, balki kunduzgi oddiy yo'rug'likka ham sezgirdir. Qorong'i laboratoriya honalarida tadqiqot o'tkazishdan oldin (har bir rentgen xonasida mavjud bo'lgan) maxsus kassetalarga pylonkalar joylashtiriladi. Kasseta (2-rasm) tekis quti bo'lib, uning ichki tomoniga flyuorecent modda bilan qoplangan karton plastinkalar yopishtirilgan. Ular kuchaytiruvchi ekranlar deb ataladi va pylonani eng zo'r "yorituvchi" sifatida xizmat qiladi, shu bilan bir qatorda bemordagi nurlanish dozasini kamaytiradi, o'rganilayotgan ob'ekt tasvirini olish uchun zarur bo'lgan rentgen nurlanishi miqdorini sezilarli darajada kamaytiradi.

Shunday qilib, rentgenografiyada rentgen nurlari bemordan o'tadi, kumush galogenit kristallarini qo'zg'atib yashirin tasvir hosil qiladigan rentgen pylonkasiga tushadi. Keyin kassetadan pylonkani chiqarib kimyoviy ishlov beriladi. Bu "qo'lda" jarayoni deb ataladigan. Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtida aksariyat muassasalarda rentgen pylonkalarini kimyoviy qayta ishslash uchun avtomatik tizimlar - ishlab chiquvchi mashinalar qo'llanilib kelinmoqda. Ular tasvir olish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi va tasvir sifatini oshiradi. Rentgenogrammadagi tasvir anatomik organlarning shakli, holati va hajmini shuningdek, ularning tuzilishini baholash imkonini beradi.

Rentgenografiyaning rengenoskopiyaaga nisbatan quyidagi afzalliklari mavjud: yuqori anqlik imkoniyati; rentgenogrammaning ob'ektivligi, uzoq muddatli saqlash imkoniyati; ko'plab mutaxassislar tomonidan baholash imkoniyati; bir nechta tasvirlarni solishtirish, ya'ni. dinamik kuzatish imkoniyati; bemorga nisbatan kamroq nurlanish ta'siri

Radiografiyaning kamchiliklari - bu nisbatan yuqori moddiy xarajatli materiallarni (rentgen plyonkasini, kimyoviy reaktivlarni) o'z ichiga oladi.

Rentgenografiya metodikasi barcha tibbiyat muassasalarida qo'llanilishi mumkin va hozirda eng qulay usullardan biri bo'lib hisoblanadi. Rentgen qurilmalari rentgen xonasini sharoiti yaratilgan palatada, reanimasiyada, operatsiya xonasida va intensiv terapiya bo'limlarida ham qo'llanilishi mumkin.

**Flyorografiya** - bu rentgen tekshirushi usuli bo'lib, unda flyorecsent ekrandan turli formatdagi plynokaga (70x70, 100x100 va 110x110 mm) fotografik tasvir olinadi. Shunday qilib, fluorografiya tasvir har doim kichraylashtiriladi (3-rasm). Ftorografiyaning asosiy maqsadi bu o'pkaning yashirin kasalliklarini aniqlash bo'lib, aholini ommaviy (profilaktik) tekshirish - profilaktik flyorografiyada qo'llaniladi.

Flyorografiyaning rentgenografiyaga nisbatan asosiy afzalliklari qimmat rentgen plynokasiniga nisbatan qollaniladigan plynokaning arzonligi va uni tezlik bilan to'ldirilishi, ya'ni bitta rentgenogrammani bajarish uchun ketgan vaqtga nisbatan flyorogrammaga 3 marta kam vaqt sarflanadi – bu esa o'tuvchanlik husisiyatning kattaligi deyiladi.

Kamchiligi - bu o'tuvchanlik husisiyatning kichikligi va shunga mos ravishda ma'lumotlar tarkibining kamlidigidir. Flyorografik qurilmalar etarli darajada ixcham bo'lib, ularni yuk mashinasining kuzovida o'rnatish mumkin. Bu rentgen diagnostika qurilmalari mavjud bo'limgan joylarda aholini ommaviy tekshirish imkonini beradi.

Ma'lumotlar mazmuni bo'yicha flyorografiya, rentgenografiyadan past bo'lsa-da, kattakadrli flyorogrammalarda foydalananiganda usullar orasidagi farqlar kamroq ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun, kasalxonalarda hafas olish organidagi kasalliklari bilan og'igan bemorlarda, takroriy tekshiruvlar olib borishda rentgenografiyanı ko'pincha flyorogramma bilan almashtiriladi. Bunday flyorografiya diagnostikaviy deb ataladi.

So'nggi paytlarda plynokali flyorografiya tobora ko'proq raqamli florografiya bilan almashtirilib borilmoqda. "Raqamli flyorograf" nomi shartli nom bo'lib, ushbu qurilmalarda flyorecsent ekrandan plynokaga tasvirning fotosurati olinmaydi, bu erda ekran detektorlar - raqamli matritsalar bilan almashtiriladi. Aslida, bu flyorograflar raqamli rentgenografik qurilmalardan iborat bo'lib, faqat ko'krak bo'shlig'i organlarini tekshirish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

**Adqabiyotlar ro'yhati:**

1. Основы и принципы лучевой диагностики: Учеб-метод. пособие / А.И. Алешкевич [и др.]. – Минск: БГМУ, 2015. – 86 с.
2. <https://coppershop.ru/uz/kak-vybrat/rentgenologiya-rentgenologicheskie-metody-issledovaniya-rentgenografiya---eto-metod-issledovaniya-vnute.html>.
3. Ilyosov T.N. Klinik radiologiya asoslari: Tibbiyat instituti talabalari uchun darslik.- T.:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.-520 b.